

“Tabiat madhiyasi” (musiqa va matni) uchun tanloving NIZOMI

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-maydag‘i 81-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, Respublika ta’lim muassasalarida yoshlaming tabiatga bo‘lgan mehrini uyg‘otish, ulami tabiat himoyachisi sifatida tarbiyalash maqsadida “Tabiat madhiyasi” (musiqa va matni) uchun tanlovni (keyingi o‘rinlarda — tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

II bob. Tanloving maqsadi va vazifalari

2. Tanlov quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi:

aholi, jumladan, yoshlarni O‘zbekistonning ekologik muammolarini samarali hal etish yo‘Tlarini izlashda faol ishtirok etish, ekologik bilim va tushunchalami o‘rganish va tushunishga undash;

O‘zbekiston yoshlarida ekologik bilimlar, aholining ekologik madaniyati hamda ekologiyaga yo‘naltirilgan dunyoqarashini shakllantirishga ko‘maklashish;

ishtirokchilarga ekologik kelajak haqida tasavvurlarini she‘r va uning musiqasi shaklida ifodalash imkoniyatini yaratish;

ommaviy axborot vositalari orqali dolzarb ekologik muammolar va taklif etilayotgan yechimlarni keng tarannum etish;

Respublika ta’lim muassasalarida yoshlaming tabiatga bo‘lgan mehrini uyg‘otish, ulami tabiat himoyachisi sifatida tarbiyalash.

III bob. Tanlov ishtirokchilari

3. Tanlovda respublikamizning barcha oliy ta’lim muassasalari, akademik litsey, kollej va texnikumlarning talabalari hamda barcha umumtaTim maktablaming yuqori sinf o‘quvchilari ishtirok etishi mumkin.

4. Tanloving hakamlar hay’ati tomonidan ishtirokchilar professional va havaskor qatnashuvchilarga ajratiladi.

5. Tashkiliy qo‘mita barcha ishtirokchilar uchun teng shart-sharoitlar yaratadi, tanloving ochiqligi, arizalami qabul qilish, ro‘yxatga olish, arizalar va ularga

ilova qilingan materiallaming saqlanishi, tanlov g'oliblarini taqdirlashni ta'minlaydi.

IV bob. Tanlovga ariza va ijodiy ishlarni taqdim etish va ularga qo'yiladigan talablar

6. Tanlovda qatnashish uchun arizalar va ijodiy ishlar 2024-yil 11-noyabr-5-dekabr kunlari info@eco.gov.uz elektron manzili orqali qabul qilinadi. Qo'shimcha ma'lumot uchun vazirlikning (+99871) 207-07-70 (ichki: 1108#) raqamlariga murojaat qilish mumkin.

7. Tanlovga yuborilayotgan ijodiy ish ekologiya, atrof-muhit va uning tozaligi, ekologiyaning eng dolzarb muammolari hamda uning yechimlariga bag'ishlangan bo'lishi lozim.

8. Tanlovga topshirilayotgan arizalarga ishtirokchilarning ijodiy ishlari (MP3 formatda) biriktiriladi.

9. Tanlovga taqdim etilgan materiallar muallifga qaytarilmaydi.

V bob. Tanlov gfoliblarini aniqlash

10. Tanlovga taqdim etilgan ariza va materiallar tanlovning hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan 10 kun muddat ichida ko'rib chiqiladi.

11. Yangi yil arafasida gfoliblar e'lon qilinadi.

12. Tanlov gfoliblari professional va havaskor qatnashuvchilarga qarab 1-, 2- va 3-o'rinalar asosida aniqlanadi.

VI bob. Tanlov materialiarini baholash mezonlari

13. Tanlovning hakamlar hay'ati a'zolari quyidagi mezonlar bo'yicha tanlovga topshirilgan ijodiy ishlarni baholaydi:

Baholash mezonlari	Ballar
She'r va musiqaning tanlov yofoalishiga mosligi	20
Mavzuning dolzarbliji va ilmiy asoslanganligi	10
Axborot mazmuni (matnning mantiqiy tuzilishi, ma'lumot, muallif pozitsiyasining mavjudligi)	30
Tilni qo'llab-quvvatlash sifati (savodxonlik, leksik boylik, talaffuz)	30
Ijodkorlik (yangilik, she'r va musiqa mavzusining o'ziga xosligi)	10

14. Tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlar uchun maksimal ball - 100 ball.

VII bob. Tanlovning hakamlar hay'ati

15. Tanlovning hakamlar hay'ati tarkibiga nomzodlar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi tomonidan tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi.

16. Hakamlar hay'ati a'zolari tarkibi tashkiliy qo'mita raisi tomonidan tasdiqlanadi.

17. Tanlov gfoliblari hakamlar hay'ati yig'ilishi bayoni bilan rasmiylashtiriladi.

VIII. G‘oliblarni taqdirlash

18. Tanlov g‘oliblarining professional va havaskor qatnashuvchilarga qarab 1-, 2- va 3-o‘rin sohiblari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining diplom, statuetka va pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

19. Pul mukofoti quyidagicha taqsimlanadi:

1-o‘rin uchun - 20 000 000 (yigirma million) so‘m;

2- o‘rin uchun - 15 000 000 (o‘n besh million) so‘m;

3- o‘rin uchun - 10 000 000 (o‘n million) so‘m.

20. Tanlov natijasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining www.eco.gov.uz veb-saytida e’lon qilinadi.

IX bob. Yakunlovchi qoidalar

21. Tashkilotchilar tanlov ishlaridan notijorat maqsadlarda muallifning (hammualliflaming) ism-familiyasi ko‘rsatilgan holda televideniyeda namoyish qilish, radio orqali eshittirish uchun, Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirish va bosma ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish uchun foydalanish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

22. Taqdim etilgan ijodiy ishlarga uchinchi shaxslar, shu jumladan, mualliflik va turdosh huquqlar egalaridan da’volar kelib tushgan taqdirda, ishtirokchi ulami o‘z nomidan va o‘z mablag‘lari hisobidan hal etish majburiyatini oladi.

23. Tashkilotchi tanlovga arizalarni topshirish uchun belgilangan muddatning birinchi yarmida tanlovnı bekor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

24. Uchinchi shaxslaming mualliflik huquqlarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tanlov ishini taqdim etgan ishtirokchi javobgar bo‘ladi.

25. Tanlovida ishtirok etish bilan bog‘liq xarajatlar (pochta, sayohat va boshqalar) ishtirokchilaming o‘zлари tomonidan to‘lanadi.

Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining
2024-yil “ //”-noyabrdagi **5** -sonli,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “/^”-noyabrdagi **^^^sonli**,
Maktabgacha va maktab tadimiva2irligining
2024-yil “ _ ”,-noyabrdagiffi^sonli,
0'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining
2024-yil “ __ ”-noyabrdagi-sonli,
0'zbekiston Milliy axborot agentligining
2024-yil “ _ ”-noyabrdagi-sonli
qo'shma qaroriga
2-ilova

“Tabiat madhiyasi” tanlovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita a'zolari TARKIBI

- | | |
|------------------|---|
| O. Qudratov | - Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining birinchi o'rinosari, tashkiliy qo'mita raisi |
| S. Buzrukxonov | - Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari |
| F. Boqiyev | - Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinosari |
| M. Safarov | - O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisining birinchi o'rinosari |
| X. Xudayberdiyev | - O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktorining birinchi o'rinosari |
| Z. Abdullayeva | - Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining bo'lim boshlig'i |
| Lavozimiga ko'ra | - Qoraqalpog'iston Respublikasi ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmalari boshliqlari |
| Lavozimiga ko'ra | - Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari |
| Lavozimiga ko'ra | - Oliy ta'lim muassasalari rektorlari |

**O'zbekiston Respublikasi
ekologiya, atrof-muhitni muhofaza
qilish va iqlim o'zgarishi vaziri**

 A. Abduxakimov

2024-yil "04" noyabr
6-sonli

**O'zbekiston Respublikasi Zw
oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri**

 Q. Sharipov

2024-yil "04" noyabr
14/04-sonli

**O'zbekiston Respublikasi
maktabgacha va maktab ta'lif vaziri**

 X. Umarova

2024-yil "04" noyabr
19/04-sonli

**O'zbekistom
Milliy teleradiokompaniyasi raisi**

 A. Djurabayev

2024-yil "___"
-sonli

**O'zbekistom
Milliy axborot agentligi raisi**

 A. Ko'chimov

2024-yil "___"
-sonli